

BOLALARDA GELMINTOZ KASALLIGINING ETIOLOGIYASI, PATOGENEZI VA KLINIK BELGILARI

Xakimjonova Gulshodaxon Eldorbek qizi
Qo'qon universiteti Andijon filiali
Pediatriya yo'nalishi 25-02-guruh talabasi
Akromjonova Xalimaxon O'rmonbek qizi
Klinik va patologik anatomiya o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17439857>

Annotatsiya

Ushbu maqolada bolalarda uchraydigan gelmintoz kasalliklarining etiologiyasi, patogenezi va klinik belgilariga oid ilmiy tahlillar keltirilgan. Gelmintozlarning paydo bo'lish sabablari, parazitlarning organizmga ko'rsatadigan toksik, mexanik va immunologik ta'siri, shuningdek, ularning bola organizmida yuzaga keltiradigan klinik o'zgarishlari tibbiy nuqtai nazardan yoritilgan. Maqolada gelmintozlarni erta aniqlash, laborator diagnostika, davolash va profilaktika choralari bo'yicha amaliy tavsiyalar ham bayon etilgan.

Kalit so'zlar

Bolalar, gelmintoz, etiologiya, patogenezi, klinik belgi, parazit, askaridoz, enterobioz, diagnostika, profilaktika.

Kirish

Bolalar orasida uchraydigan parazitlar kasalliklar ichida gelmintozlar eng keng tarqalgan infeksiyon kasalliklardan biridir. Gelmintozlar- bu turli xil parazitlar qurtlar gelmintlar tomonidan chaqiriladigan kasalliklar bo'lib, ular inson tanasiga, asosan, ovqat, suv yoki tuproq orqali tushadi. Bolalarda immune tizimining yetarlicha shakllanmaganligi, gigiyenik ko'nikmalarning pastligi va tashqi muhit bilan faol aloqasi tufayli ushbu kasallikka moyillik yuqoridir.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi va butun dunyo miqyosida gelmintozlar profilaktikasiga katta e'tibor qaratilmoqda, chunki ular nafaqat fiziologik, balki intellektual rivojlanish jarayoniga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Etiologiyasi

Gelmintozlar uch asosiy guruhdagi parazitlar tomonidan chaqiriladi. Nematodalar-dumaloq qurtlar, askaridoz, enterobioz, trixotsefalez. Trematodalar-soshtsimon qurtlar, fasciolioz, shistosomoz. Sestodalar-tasmaqurtlar, teniarinxoz, tsepen, gimenolepidoz. Bolalarda eng ko'p uchraydigan shakllar- askaridoz va enterobioz bo'lib, ular asosan og'iz orqali infeksiya tushishi natijasida yuzaga keladi. Gelmintlar tuxumlari iflos qo'llar, meva-sabzavotlar, suv orqali bolalar ichaklariga tushadi va rivojlanish bosqichlarini o'tib, yetuk shaklga aylanadi.

Patogenezi

elmintozlarning patogenezida bir necha asosiy mexanizmlar ajratiladi. Mexanik ta'sir parazitlar ichak devorlariga yopishib, mexanik shikastlanish keltirib chiqaradi, bu esa yallig'lanish jarayoniga sabab bo'ladi. Toksik-allergik ta'sir – gelmintlar hayot faoliyati davomida turli toksik moddalarning ajralishi orqali organizmni zaharlaydi va allergik reaksiya chaqiradi. Oziq moddalarga raqobat- gelmintlar organizmga kirgan oziq moddalarning bir qismini o'zlashtiradi, bu esa bolaning o'sishi va rivojlanishida to'xtalishlarga olib keladi. Immun tizimga ta'siri – uzoq davom etuvchi gelmintozlarda immun javob susayadi, bola boshqa infeksiyalarga moyil bo'lib qoladi. Askaridozda lichinkalar qon oqimi orqali o'pkaga,

keyinchalik traxeya orqali og'iz bo'shlig'iga qaytib tushadi va yana ichakka o'tadi- bu migratsion sikl organizmda ko'plab patologik o'zgarishlarni yuzaga keltiradi.

Klinik belgilari

Gelmintozlarning klinik ko'rinishlari parazit turi, miqdori va organizmning reaktivligiga qarab farqlanadi. Umumiy belgilar quyidagilardan iborat. Ovqat hazm qilish tizimi belgilaridan, ishtahaning buzilishi, ortishi yoki pasayishi paydo bo'ladi. Qorin og'riydi, ko'p hollarda kindik atrofi sohasida og'riq bo'ladi. Ich ketadi yoki qabziyat kelib chiqadi. Qorinda g'uvillash, meteorizm.

Asab tizimi belgilari

Bolada tez charchash, asabiylashish, uyqusizlik yuzaga keladi. Diqqatning pasayishi, o'qishda qiyinchilik paydo bo'ladi. Ba'zan tunda tish g'ijirlatishga sabab bo'ladi. Allergik belgilardan teriga toshmalar toshadi, qichishadi. Burun oqishi, yo'tal yoki bronxospazm holatlari kelib chiqadi. Yana qo'shimcha belgilar bo'ladi, terisi oqaradi, kamqonlik yuzaga keladi. Ozib ketadi, o'sishdan orqada qoladi. Ayrim hollarda jigar, taloq kattalashadi.

Diagnostika

Gelmintozni aniqlashda quyidagi usullar qo'llaniladi. Laborator usullari najasni mikroskopik tekshirish gelmint tuxumlari aniqlanadi. Serologik testlar: immunoferment tahlil IFA orqali gelmint antigenlariga antitanachalar aniqlanadi. Instrumental usullari ultratovush tekshiruv, rentgenografiya yoki endoskopiya ba'zan yordamchi ahamiyat kasb etadi.

Profilaktika va Davolash choralari

Bolalarga shaxsiy gigiyena qoidalarini o'rgatadi, qo'l yuviladi, tirnoqlarni toza saqlaydi. Ifloslangan suv va yuvilmagan mevalardan foydalanmaslik. Uy hayvonlarini muntazam degelmintizatsiya qiladi. Maktab va bolalar bog'chalarida gigiyenik nazoratni kuchaytiradi.

Davolash

Gelmintozlarni davolash uchun asosan quyidagi dorilar qo'llaniladi. Albendazol, Mebendazol, Pirantel, Levamizol kabi keng ta'sir doirasiga ega antihelmintik preparatlar. Davo kursi shifokor nazorati ostida o'tkaziladi, zarurat bo'lsa, 2-3 haftadan so'ng takror kurs buyuriladi.

Xulosa

Bolalarda gelmintozlar sog'lom o'sish va intellektual rivojlanishga jiddiy to'sqinlik qiluvchi omillardandir. Kasallikning asosiy sababi gigiyenik madaniyatning pastligi va atrof-muhitning ifloslanishidir. Erta tashxis va o'z vaqtida davolash bilan bir qatorda, profilaktika choralari eng muhim omildir. Shu sababli, tibbiyot xodimlari, ota-onalar va pedagoglar hamkorligida bolalarda gelmintozlarning oldini olish bo'yicha tizimli ish olib borish zarur.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Karimov A. Parazitologiya va invazion kasalliklar, Toshkent 2022
2. WHO. Helminth infections: epidemiology and control, Geneva 2023.
3. O'zbekiston Sog'liqni Saqlash vazirligi ma'lumotlari 2024.
4. Bekmurodov X. Bolalarda parazitlar kasalliklarning klinik diagnostikasi, Toshkent tibbiyot akademiyasi nashriyoti 2021.
5. CDC Centers for Disease Control and Prevention. Soil- transmitted helminths 2023.